

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

NAVOIY VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORIGINI MOLIYAVIY
QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA
QILINAYOTGAN ISHLAR

Abduaxatova Madina Zokir qizi

Bank-Moliya Akademiyasi

Biznesni boshqarish "MBA-general" fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyatida ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti yoritilgan. Shu bilan birga, bu jarayondagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, tadbirkorlik markazlari, kasbga o'qitish, ayollar daftari, imtiyozli kreditlar.

Annotation. The article describes the practice of financial support for women's entrepreneurship in the Navoi region. At the same time, existing problems in this process, ways to eliminate them, directions for improving the current mechanism for financial support of women's entrepreneurship are highlighted.

Key words: women's entrepreneurship, small business, entrepreneurship centers, vocational training, women's notebook, preferential loans.

Kirish. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, aholi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini moliyalashtirish amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga har tomonlama bog'liq.

Xususan, Navoiy viloyatida ayollar tadbirkorligi, ularni rivojlantirish bo'yicha moliyaviy qo'llab-quvvatlash qay darajada amalga oshirilgan, aynan shu mavzular bo'yicha kuzatish va izlanishlar qay darjada tashkil qilingan degan savollarga javob topamiz.

Jamiyatdagi rivojlanish davrida Navoiy viloyatida ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-manova va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Keng ko'lamli olib borilayotgan ishlarning pirovardida xotin-qizlarning faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish kabi dolzarb maqsad turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Navoiy viloyatida ayollar tadbirkorligi mavzusining dolzarbigidan kelib chiqqan holda xorijiy davlatlar va mamlakatimiz, hamda viloyatimizning iqtisodchi olimlari tomonidan ayollar tadbirkorligi, xususan ularni moliyaviy tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalariga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator ilmiy asarlar, risolalar va maqolalar e'lon qilingan.

Jumladan, X.Abduramanov, Sh.Zokirovning tadqiqotlarida, xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi tadqiq qilingan va mualliflar tomonidan O'zbekiston sharoitida amalda qo'llash yuzasidan takliflar berilgan.

Shuningdek, M.Yo'ldosheva (2023) tadqiqotlarida keltirishicha, "Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy hamda turmush sharoiti og'ir, ishsiz xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish, doimiy daromad manbalarini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasidagi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularni o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Navoiy viloyatida xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlar" tahlillari keltirilgan.

Biroq viloyatimizda ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida muammolarning mavjudligi ilmiy maqola mavzusini dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga oid olimlarning iqtisodiy qarashlari, ularning ushbu mavzuni tahlil qilish, ekspert baholash, iqtisodiy jarayonlarni tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar. Navoiy viloyatida asosan yirik sanoat korxonalari mavjudligi sababli tadbirkorlik subyektlarining faoliyati uncha keng yoyilmagan. Shuning uchun ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi umumiy viloyat iqtisodiyotda kam foizni tashkil etadi. (1-jadval)

Manba: Statistika qo'mitasi Navoiy viloyat boshqarmasi (navstat.uz (2024)ma'lumotlari

Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(umumiy hajmga nisbatan % da)

1-jadval

Yil	YaHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2010	34,4	8,7	49,5	55,8
2011	35,9	9,8	62,3	56,0
2012	35,7	11,1	63,9	58,8
2013	36,1	14,0	68,4	59,4
2014	36,9	15,8	73,6	60,2
2015	49,0	19,4	75,8	60,3
2016	48,8	20,8	74,8	60,3
2017	47,8	19,4	75,4	59,3
2018	41,0	16,8	72,7	56,2
2019	31,3	8,4	71,9	55,1
2020	25,4	6,5	74,1	51,9
2021	27,1	6,6	75,6	50,5
2022	26,8	7,2	80,4	52,7
yanvar-dekabr 2023- yil ¹⁾	26,0	7,7	79,1	51,6
yanvar-mart 2024- yil ¹⁾	18,6	6,3	76,2	-

Bugun yurtimizda ayollar bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bu borada duch kelayotgan muammolariga yechim topish davlatimiz siyosatining eng muhim yo'naliishlaridan biriga aylandi.

Xususan, kichik biznes va tadbirkorlikda xotin-qizlarning o'rni nihoyatda katta ekanligi va bu borada Navoiy viloyatida ayollar tadbirkorligi va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida qilingan ishlarni tahlil qilib chiqamiz.

Navoiy viloyati aholisining 521 mingdan ortiqroq qismini xotin-qizlar tashkil qiladi. Mehnat sohalarida band bo'lish darajasini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

1-rasm

Manba: "Ayollar-oila va jamiyat farovonligining muhim sharti" (2023)

Navoiy viloyatida tadbirkor ayollar tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikning turli sohalarida faoliyat olib borib, viloyatda yaratgan jami ish o'rirlari soni va olgan daromadlari oxiri 5 yil davomidagi ko'rsatkichlari tahlil qilindi:

2019-2023 yillarda Navoiy viloyatida tadbirkor ayollar tomonidan amalga oshirilgan ishlar

2-jadval

Yillar	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilgan ayollar soni	Yaratilgan ish o'rirlari soni	Imtiyozli kredit olganlar soni	Daromadi (o'rtacha jon boshiga,) ming so'mda
2019	815	3734	8801	1409,3
2020	3208	4446	8218	1723,1
2021	1917	3852	6889	1984,8
2022	2176	37 976	10 265	2577,5
2023	1945	49 646	10 805	2816,4
Jami	10061	99 654	44 978	10 511,1

Manba: Navoiy viloyati Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi ma'lumotlari (2024)

Navoiy statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, ([navstat.uz](#) sayti 2024) "Ayollar tadbirkorligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yilda kichik korxona va mikrofirmalarga rahbarlik qilgan ayollar sanoat sohasining eng ko'pi kiyim kechak va to'qimachilik yo'nalishida **1 836 nafar** yoki jami sanoatda rahbarlik qilayotgan ayol tadbirkorlarning **33,1 %i, oziq ovqat sanoatida**

1 761 nafar yoki **31,8 %i, boshqa nometall mineral mahsulotlar** ishlab chiqarish sanoatida **410 nafar** yoki **7,4 %i, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar** ishlab chiqarish sanoatida **198 nafar** yoki **3,6 % ni hamda mebel ishlab chiqarish** sanoatida **192 nafar** yoki **3,5 % ni tashkil etdi".**

Navoiy viloyatida tadbirkor ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Navoiy viloyati

Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi joriy arxivni (2020-yil) ma'lumotiga ko'ra, "2020-yil davomida Navoiy viloyatida xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan jami 273 ta yangi ish o'rirlari yaratilgan. Shuningdek, Zarafshon shahrida 34 nafar, Xatirchi tumanida 49 nafar, Uchquduq tumanida 2 nafar, Nurota tumanida 61 nafar, Navoiy shahridan 16 nafar, Navbahor tumanida

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

39 nafar, Qiziltepa tumanidan 23 nafar, Konimex tumanidan 35 nafar, Karmana tumanidan 12 nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlandi. 2020-yilda viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan kambaǵallikni oldini olish buyicha ishsiz, og'ir vaziyatga tushib qolgan, bola parvarishi bilan doimiy shug'ullangan xotin-qizlar o'quv markazlariga jalb etilib,o'quv dastur va reja asosida 2108 nafar ayollar o'qitilgan. Jumladan: Xatirchi tumanidan 380 nafar, Nurota tumanidan

350 nafar, Navoiy shahridan 140 nafar, Karmana tumanidan 170 nafar xotin-qizlar o'quv kurslariga jalb etildi. O'quv dasturi va reja asosida 2108 nafar ayollar o'qitildi, 3039 nafar xotin-qizlar viloyat xotin-qizlar tadbirkorligi markazi tomonidan 22 xil yo'nalishdagi kasb-hunarga jalb etildi”.

Shuningdek, imtiyozli kredit olish istagini bildirgan va “Ayollar daftari”da turuvchi xotin-qizlarga ham kredit mablag'lari ajratildi.

Tadbirkor ayollarga ajratilgan imtiyozlar bilan bir qatorda ularni biznes ko'nikmalarini ortirishga qaratilgan o'quv seminarlari bugungi kunga kelib o'zining samarasini bermoqda. O'quv seminar-trening davomida xotin-qizlarga tadbirkorlikning huquqiy asoslari, biznes-reja tuzish, biznesni moliyalashtirish, marketing va samarali mahsulot sotish, menejment usullari kabi mavzularda tayanch bilimlar berilmoqda.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri bu-ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hisoblanadi. Ayollarning tadbirkorlik va biznesdagi faol ishtiropi bevosita iqtisodiy rivojlanish va farovonlikka xizmat qiladi. Shu munosabat bilan respublikamizda, xususan, Navoiy viloyatida tadbirkor ayollarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyotini samarali tashkil etishga doir amalga oshirgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Huquqqiy baza va tartibga solish tizimini takomillashtirish:

Navoiy viloyati ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari va tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan qonun hujjalarni takomillashtirish va mustahkam huquqiy kafolatlarni yaratish orqali qo'llab-quvvatlash mumkin.

2) Imtiyozli kreditlashtirish va investitsiya kiritish: “Tadbirkor ayol” dasturi doirasida “startap” va innovatsion loyihamar uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlashtirish tizimini institutsiional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirib borish kerak.

3) ta'lim berish tizimini va tajriba ortirishni qo'llab quvvatlash: ya'ni, tadbirkorlik va biznesga oid bo'lgan o'quv dasturlari sonini ko'paytirish, bunda e'tiborni Xotin-qizlar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlashda tayyor tadbirkorlik va biznes namunalarni o'z ichiga olgan elektron kitoblar, audio va video qo'llanmalar yaratishga qaratish zarur.

4) Xalqaro aloqalar va tajriba almashish: Viloyatimizda faoliyat olib borayotgan tadbirkor ayollar faoliyatini yanada rivojlantirish borasida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

5) Ijtimoiy sohadagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tadbirkorlik sohasida ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash orqali, ijtimoiy dolzarb va ekologik muammolarni hal qiluvchi yangi usuldagи biznes loyihalarini yaratilishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyatida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish, salohiyatini oshirish va ularning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lida davlatimiz tomonidan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad, ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda rolini yanada oshirish, mamlakatda xotin-qizlar ishsizligini kamaytirishdan iboratdir.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, 28.01.2022 yil. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli farmoni. 07.03.2022 yil. <https://lex.uz/docs/5899498>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. 22.07.2022.
4. Yo’ldosheva M., “Mustaqillik yillarda Navoiy viloyati xotin-qizlarining tadbirkorlik faoliyatining takomillashtirilishi”. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH Vol. 2 No. 17 (2022)
5. Navoiy viloyati Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi joriy arxivi, 2020-yil ma'lumoti
6. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash Vazirligi huzuridagi Navoiy viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti
7. “Ayollar-oila va jamiyat farovonligining muhim sharti” (2023) <https://xs.uz/uz/uz/>
8. Statistika qo‘mitasi Navoiy biloyat boshqarmasi (2024) navstat.uz ma'lumotlari